

“OT KISHNAGAN OQSHOM” ASARIDA QO‘LLANGAN OT ANJOMLARIGA  
OID SO‘ZLARNING LINGVOSTATISTIK TAHLILI

**Tojiyeva Shahlo Eshmurod qizi**

*Samarqand davlat universiteti 1-kurs magistranti*

[tojiyevashaxlo03@gmail.com](mailto:tojiyevashaxlo03@gmail.com)

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada “Ot kishnagan oqshom” asarida qo‘llangan ot anjomlariga oid leksik birliklarning lingvostatistik xususiyatlari tahlil qilindi. Asardagi otchilikka oid so‘zlarning qo‘llanish chastotasi, badiiy-estetik vazifalari yoritilgan. Tahlil davomida ot anjomlari nomlarining milliy kolorit yaratish, qahramon xarakterini ochish va xalqona ruhni ifodalashdagi o‘rni statistik hamda semantik jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada ot anjomlariga oid leksemalarning absolyut va nisbiy chastotasi aniqlanib, ularning asar poetikasidagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.*

**Аннотация:** *В данной статье проанализированы лингвостатистические особенности лексических единиц, связанных с конским снаряжением, использованных в произведении “Вечер, когда заржал конь”. Освещены частотность употребления слов, относящихся к коневодческой тематике, а также их художественно-эстетические функции в произведении. В ходе анализа статистически и семантически обоснована роль наименований конского снаряжения в создании национального колорита, раскрытии характера персонажей и выражении народного духа. Кроме того, в статье определены абсолютная и относительная частотность данных лексем, а также показано их значение в поэтике произведения.*

**Abstract:** *This article analyzes the linguostatistical features of lexical units related to horse equipment used in the work “The Evening When the Horse Neighed”. The study examines the frequency of equestrian-related words and their artistic and aesthetic functions in the text. It also statistically and semantically substantiates the role of horse equipment terms in creating national color, revealing character traits, and expressing a folk spirit. Furthermore, the article identifies the absolute and relative frequencies of these lexical units and highlights their significance in the poetics of the work.*

**Kalit so‘zlar:** *lingvostatistika, ot anjomlari, absolyut chastota, nisbiy chastota, semantik tahlil, milliy kolorit, poetik vazifa.*

**Ключевые слова:** *лингвостатистика, конское снаряжение, абсолютная частотность, относительная частотность, семантический анализ, национальный колорит, поэтическая функция.*

**Keywords:** *linguostatistics, horse equipment, absolute frequency, relative frequency, semantic analysis, national color, poetic function.*

O‘zbek adabiyotida o‘ziga xos uslub yaratgan yirik namoyandalardan biri, shubhasiz, Tog‘ay Muroddir. U, ayniqsa, qishloq hayoti, oddiy insonlar taqdiri, milliy ruh va ichki

kechinmalarni chuqur tasvirlagani bilan mashhur. Yozuvchi o'zbek qishlog'ining muammolari, odamlari, urf-odatlarini va ruhiyatini mahorat bilan yoritgan. Asarlarida insonning ichki dunyosi, iztiroblari, orzu-armonlari katta badiiy kuch bilan ochib beriladi. U milliy qadriyatlar, tarix va xalq xotirasiga alohida e'tibor qaratgan. Tog'ay Murod ijodi o'zbek nasrida yangi badiiy uslub yaratdi. Uning asarlarida realizm, milliy ruh va falsafiy mushohada uyg'unlashgan. Bunday asarlarning til xususiyatlari, uslubiy jihatlari va boshqa xususiyatlarini o'rganish tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi texnologiyalar rivojlanayotgan zamonda matnlarning turli tomonlarini o'rganish uchun turli xil kompyuter dasturlarining yaratilishi yana ham qulaylik yaratmoqda.

Ana shunday metodlardan biri matnlarni statistik usul orqali o'rganish hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida matnning lug'aviy tarkibini miqdoriy jihatdan o'rganish sohasida V.V.Reshetov (1934), A.K.Borovkov (1940), F.Abdullayev (1949), M.Mirzayev (1951), I.Rasulov (1951), G.Muhammadjonova (1972), N.G'ulomova (1975) kabi olimlar birqancha ishlarni amalga oshirgan. Jumladan, bir guruh olimlar "Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati" ni yaratishda leksik birliklarni to'plash, ularni kompyuter xotirasiga kiritish, muayyan maqsad ostida ularga ishlov berishda kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalandilar.<sup>55</sup> Bu izlanishlar natijasida tilshunosligimiz yangi ma'lumotlar bilan boyidi.

"Ot kishnagan oqshom" asarida ustida olib borgan lingvostatistik tahlilimiz natijasida quyidagilar aniqlandi:

Ot anjomlariga oid nomlar	Nisbiy chastota	Absolyut chastota	Foiz hisobida
terlik	1	0,00004	0,004 %
bellik	2	0,00008	0,008 %
chirgi	1	0,00004	0,004 %
boz	1	0,00004	0,004 %
jahannik	1	0,00004	0,004 %
jul	1	0,00004	0,004 %
pushton	2	0,00008	0,008 %
quyushqon	1	0,00004	0,004 %
yugan	2	0,00008	0,008 %
ko'pchik	1	0,00004	0,004 %
uzangili egar	1	0,00004	0,004 %
suqliq	1	0,00004	0,004 %
abzal	6	0,00026	0,026 %
qamchi	19	0,00083	0,083 %
jilov	18	0,00079	0,079 %
nag'al	2	0,00008	0,008 %

<sup>55</sup> Yo'ldoshev B. Matnni o'rganishning lingvostatistik metodlari. –Samarqand, 2008.-B. 28.

janda	1	0,00004	0,004 %
jabduq	3	0,00013	0,013 %

Ushbu jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, asarda qo'llangan ot anjomlariga oid so'zlardan jabduq, abzal, qamchi, jilov kabilar qo'llanish chastotasi yuqori bo'lgan so'zlar hisoblanadi va asarda ko'proq ulushni tashkil etadi. Qolgan birliklar – terlik, chirgi, boz, jahannik, jul, quyushqon, ko'pchik, uzangili egar, suvliq, janda kabi nomlar bir martadan uchraydi. Ularning kam qo'llanishi bu so'zlarning asarda ko'proq tasviriy detal yoki muayyan vaziyatni aniqlashtirish uchun ishlatilganini bildiradi. Bunday leksik birliklar matnga milliy kolorit bag'ishlab, tarixiy-etnografik ruhni kuchaytiradi. Ulardan ayrimlarining ma'nosiga e'tibor bersak:

TERLIK – otning terini to'qimga o'tkazmaslik uchun to'qim tagidan qo'yiladigan qalin namat parcha.<sup>56</sup>

BELLIK 1 shv. Jazliqning ostiga qo'yiladigan ot abzali. 2 shv. Belbog' 3. maxs. Arava g'ildiragi to'g'inining ikki uchi birlashgan joyni qisib turadigan ikkita parallel kegay.<sup>57</sup>

JUL 1 ot Qo'lda to'qilgan dag'al jun mato. Bir chakmonlik jul. 2 sft. Shu matodan qilingan. Jul chakmon. Jul qop. Jul arqon. <sup>58</sup>

CHIRGI shv. Terlik, yopiq (ot abzali)<sup>59</sup>

PUSHTAN Egarning ot qornidan aylantirib o'tqizib bog'lab qo'yiladigan tasmasi; qorinbog'.<sup>60</sup>

QUYUSHQON 1 Egarning oldinga siljimasligi uchun ot yoki eshakning dumi ostidan aylantirib, egarga biriktiriladigan, ko'pincha turli bezaklar qadaladigan qayish.<sup>61</sup>

KO'PCHIK I shv. Egari ustiga qo'yiladigan yosti.<sup>62</sup>

Go'ng chiqariladigan teshikni janda bilan kechalari yopib qo'ydim, kunduzlari ochib qo'ydim. Tarlonga arpa yem berib boshladim.(7) Omborxonada ot abzallarini — terlik, bellik, chirgi, boz, jahannik, jul, pushton, quyushqon, yugan, ko'pchik, uzangili egarni qo'ltiqlab keldim.(8) Qamchi sopini boshi uzra ko'tardi.(9) Jilovni o'ngga burdi.(10) Yo, chavandozni egar-abzali bilan ag'darib olib bo'ladi, yo, oti bilan qo'shib yiqitib olib bo'ladi.(14) Qo'yarda-qo'ymay berdim. Keyin, jabduqlar tarafga yurdim.(32)

Asarda qo'llangan ot anjomlari nomlari milliy kolorit yaratishga xizmat qilgan. Masalan, jilov, egar, uzangi, qamchi, yugan kabi so'zlar o'quvchi tasavvurida bevosita o'zbekona hayot manzarasini gavdalantiradi. Yozuvchi shu kabi birliklardan foydalanib, voqealar sodir bo'layotgan muhitni tabiiy va ishonarli tasvirlaydi. Bu esa asarning tarixiy va etnografik qimmatini oshiradi. Bundan tashqari, ot anjomlari qahramon xarakterini ochishda xizmat qiladi. Masalan, qahramonning otni qanday minib yurishi, jilovni qanday tutishi yoki

<sup>56</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Beshinchi jild.—T: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2022. – B. 221.

<sup>57</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Birinchi jild.—T: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2022. – B. 391

<sup>58</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchi jild.—T: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2022. – B. 690

<sup>59</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Oltinchi jild.—T: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2022. – B. 792

<sup>60</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Uchinchi jild.—T: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2022. – B. 832

<sup>61</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. To'rtinchi jild.—T: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2022. – B. 318

<sup>62</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikkinchi jild.—T: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2022. – B. 995

qamchini ishlatishi uning fe'l-atvori haqida ma'lumot beradi. Jasur va epchil qahramon ko'pincha otni mohirona boshqaruvchi sifatida tasvirlanadi. Aksincha, qo'rqqoq yoki tajribasiz obraz ot bilan munosabatida no'noqlik ko'rsatadi. Demak, ot anjomlari obraz xarakteristikasining muhim detallari hisoblanadi va bunday nomlar xalqona ruhni ifodalaydi. Xalq og'zaki ijodi – doston, qo'shiq, maqol va rivoyatlarda ot va uning anjomlari tez-tez uchraydi. Masalan, "Egarsiz otga minib bo'lmas", "Yaxshi otga bir qamchi" kabi iboralar xalq donishmandligini aks ettiradi. Adiblar shu an'anani davom ettirib, asarlarida xalqona til va ruhni saqlab qoladilar.

Xulosa qilib aytganda, ot anjomlariga oid nomlar badiiy matnda nafaqat predmet ma'nosini ifodalovchi leksik birlik, balki milliy madaniyat, xalq turmushi va tarixiy muhitni aks ettiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tahlil qilingan jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, asarda ayniqsa "qamchi", "jilov", "abzal" kabi birliklar faol qo'llanib, qahramonlar xarakterini ochish, voqealar dinamikasini kuchaytirish hamda milliy kolorit yaratishda muhim badiiy vazifa bajargan. Kam uchraydigan ot anjomi nomlari esa matnning etnografik boyligini oshirib, xalqona ruh va tarixiy muhitni yanada tabiiy tasvirlashga xizmat qilgan. Demak, ot anjomlariga oid leksika yozuvchi uslubining muhim tarkibiy qismi bo'lib, asarning badiiy-estetik ta'sirchanligini kuchaytirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yo'ldoshev B. Matnni o'rganishning lingvostatistik metodlari. –Samarqand, 2008.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. T: G'afur G'ulom nomidagi NMIU. 2023.
3. Murod T. Ot kishnagan oqshom. – T: Ziyonashr, 2019. – 132 b.